

MAMLAKAT IQTISODIYOTINI BARQARQAROR RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH MASALALARI

Ro'ziboyeva Zahro Anvar qizi

Farg'ona davlat universiteti Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

zahroruziboyeva@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda yashil iqtisodiyot va unga o'tish masalalari, rivojlangan mamlakatlar usullari, rivojlangan mamlakatlar metodlarini mahalliy sharoitga moslashtirish, "yashil ish" o'rinlarini yaratish va ularni o'qitish ishlarini ta'minlash masalalari yoritilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы перехода к зеленой экономике и ее роли в обеспечении устойчивого развития экономики страны, методы развитых стран, адаптация их подходов к местным условиям, создание «зеленых» рабочих мест и обеспечение их обучения.

Abstract

This article explores the transition to a green economy and its role in ensuring the sustainable development of the country's economy, the methods of developed countries, the adaptation of their approaches to local conditions, the creation of 'green' jobs, and the provision of training for these jobs.

Kalit So'zlar

“Yashil iqtisodiyot”, “yashil ish” o'rinlari, innovatsiya, yopiq skill iqtisodiyot, chiqindilar oroli, energiya o'zgarishi, tabiiy resurslar, “yashil investitsiyalar”, qayta tiklanadigan energiya resurslari.

Ключевые Слова

«Зеленая экономика», «зеленые рабочие места», инновация, замкнутая экономика (экономика замкнутого цикла), остров отходов, энергетический переход, природные ресурсы, «зеленые инвестиции», возобновляемые энергетические ресурсы.

Key Words

Green economy", "green jobs", innovation, circular economy, garbage island (or island of waste), energy transition, natural resources, "green investments", renewable energy resources

KIRISH(BВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)

Bugungi globallashuv zamonida har bir sohada duch kelinilishi muqarrar muammolardan biri ekologiyaning barqarorligini ta'minlash, nafaqat mamlakatlar, balki, jahon iqtisodiyotini ham chetlab o'tayotgani yo'q. Insoniyat rivojlanishi bilan birga o'zgarib kelayotgan iqtisodiy tizimlarning ba'zilar atrof-muhitga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib,

natijasi esa bugungi ekologiyaga oid statistic ma'lumotlarda o'z aksini topmoqda. Shuning uchun ham bugungi rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy tizimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular allaqachon “ekologik xavfsizlik”, “yashil iqtisodiyot” kabi tamoyillarni o'zlarining rivojlanish strategiyalarida qo'llashmoqda.

Yashil iqtisodiyot deganda avvalo, iqtisodiyotning asosiy muammosi, cheklangan iqtisodiy resurslar sharoitida, insonlarning cheksiz ehtiyojlarini atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, ekologik xavf-xatarlar, tanqisliklarni kamaytirishga qaratilgan maqsadli iqtisodiyot tushuniladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-Muhit dasturi(UNEP)da ta'kidlanishicha, “iqtisodiyot yashil bo'lishi uchun nafaqat samarali balki, adolatli bo'lishi ham kerak”⁷. Bunda e'tibor qaratiladigan muhim jihatlardan biri bu tabiatga ajralib chiqayotgan uglerod darajasi, resurslarni qayta ishlash jarayonida qoladigan chiqindilar yoki “chiqindisiz” texnologiyani joriy etish masalalari tushuniladi.

Yashil iqtisodiyotga o'tishdan avval, joriy davrda qo'llanilayotgan iqtisodiy tizimga ham e'tibor qaratishimiz, kamchiliklari va afzalliklarini tahlil qilishimiz lozim. An'anaviy iqtisodiyot sharoitida tabiiy resurslardan tez, son jihatdan ko'p bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan bo'ladi. Bunda asosan, qazib olinadigan, neft, gaz, ko'mir kabi yer osti tabiiy boyliklariga ehtiyoj, yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, “qaramlik” yuqori bo'ladi. Yashil iqtisodiyot sharoitida esa, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ularni tejash, qayta ishlash jarayonlariga alohida e'tibor qaratiladi. Bugungi iqtisodiy tizimlarning deyarli barchasida asosiy maqsad maksimal darajada foyda olish. Bu maqsad esa ekologik jihatdan katta zararlar evaziga amalga oshirilmoqda. Yashil iqtisodiyot sharoitida esa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonidagi barcha omillar ekologik zararlarni kamaytirishga, xavfsiz ekologik muhit yaratish va chiqindilarning hosil bo'lishini minimallashtirishga intiladi.

Iqtisodiyotda ma'lumki, har bir tovar yoki xizmat takror ishlab chiqarish fazasidan o'tadi, ya'ni,

1. Ishlab chiqarish
2. Taqsimlash
3. Ayirboshlarsh
4. Iste'mol

Yuqoridagi jarayonlarning barchasidan o'tgan mahsulot oxirgi fazada “chiqindi”ga aylanadi. Yashil iqtisodiyotni joriy etishda bu fazalarning o'ziga xos shakllari mavjud bo'lib, unda “yopiq sikl” modeliga asoslanadi. Iste'mol jarayonidan o'tgan barcha mahsulotlar chiqindilari iloji boricha minimallashtiriladi.

Yopiq siklli iqtisodiyot — bu qiymat yaratishning yangi usuli. Chiziqli modeldan farqli o'laroq, yopiq siklli iqtisodiyotda mahsulotlar uzoq muddat foydalanish, takroran foydalanish va qayta ishlash uchun mo'ljallanadi. “Butun dunyoda chiqindilarning hosil bo'lish sur'ati yil sayin oshib bormoqda. 2020-yilda dunyoda jami 2,24 milliard tonna qattiq chiqindi hosil bo'lgan. Uning atigi 17 foizi qayta ishlangan.”⁸

Qayta ishlash darajasining pastligi asosan, dengiz bilan aloqa qiluvchi, aholisi soni

⁷ UNEP, 2011, Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication, www.unep.org/greeneconomy

⁸ <https://daryo.uz/2022/11/30/mamlakatlarda-yopiq-siklli-iqtisodiyotni-rivojlantirish-afzalliklari-tahlil-qilindi/>

yuqori bo'lgan davlatlarda proporsional ravishda hosil bo'layotgan “chiqindilar orollari”ni ko'rishimiz mumkin. “Ta'kidlanishicha, sayyorada ummon oqimlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli shakllangan beshta yirik “chiqindilar oroli” mavjud.”⁹ Ma'lumotlarga qarganda, “chiqindi orollari”ning hududi AQShning Texas shtati hududidan kata yoki, Fransiya hududi bilan tengligi aytilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

“Yashil iqtisodiyot”ga oid O'zbekistondagi muammolar, kamchiliklar va imkoniyatlarni o'rganish bugungi kunda har bir soha bilan shug'ullanuvchi kishilarning oldida turgan vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Resurslarning cheklanganligi, iqtisodiy xavf-hatarlar, tavakkalchilik, bir qator ekologik muammolar kabi bugungi kundagi dolzarb muammolar Sh.X.Xajibakiyev, Sh.A.Tashmatov, M.T.Butaboyevlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Xorijdagi shu soha bilan ilmiy ish qilayotgan, yashil iqtisodiyot sohasiga o'zining hissasini qo'shayotgan olimlardan Herman Daly, Nikolas Stern, Robert Kostanza, Amory Lovins, Keyt Revors, Elinor Ostrom kabilarni ko'rsatishimiz mumkin. Bular orasida Nikolas Stern Buyuk Britaniyalik olim o'zining “The stern review on the economics of climate change”(Iqlim o'zgarishining iqtisodiyoti bo'yicha Stern hisoboti) asarida iqlim o'zgarishi, ekologiyaning yomonlashuvini iqtisodiyotga zarari qanchalik yuqori bo'lishini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Buyuk Britaniyalik olimlardan biri Keyt Revors esa “Doughnut Economics”(Halqa iqtisodiyoti) asarida o'zining rivojlantirish modeli orqali iqtisodiy o'sishni ekologik jihatdan zarar yetkazmaslikka muvofiqlashtirish, ijtimoiy chegaralar kabi tushunchalarni ilgari surgan va insonlarning doimiy, asosiy ehtiyojlari va tabiatni muhofaza qilish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga targ'ib qilgan.

Jeffery Sash o'zining global iqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha kundan kunga og'irlashib borayotgan iqlim o'zgarishi va unga moslashish, atmosferaga kata zarar yetkazayotgan uglerod chiqindilarini kamaytirish, har bir mamlakat uchun mos keluvchi global strategiyalarni ishlab chiqqan. O'zining “The Age of Sustainable Development” asarida yashil iqtisodiyotga o'tishning har bir sohalar bo'yicha iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilib, o'rgangan.

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Bugungi kungacha bo'lgan davrda barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi barcha insonlar tabiatni o'zlariga bo'ysundirishga, yana ham kengroq miqyosda aytadigan bo'lsak, global miqyosda tabiatni iqtisodiy tizimga bo'ysundirishga harakat qilinib kelingan. Tabiiy resurslar qimmatbaho boylik sifatida emas balki, iqtisodiy ehtiyojlar uchun vosita sifatida qaraladi. Natijada, ekologik vaziyatni yomonlashtiradi va ekologik muvozanatni buzadi, resurslardan oqilona foydalanmaslik ularni tugash xavfini oshiradi. Yashil iqtisodiyotga o'tgan mamlakatlar modelida boylik va resurslar mavjud aholi o'rtasida teng taqsimlanishini asos qilib belgilaydi. Bunday sharoitda barcha iqtisodiy imkoniyatlardan teng foydalanishiga imkoniyat yaratadi. Yashil iqtisodiyot sharoitida ishchi o'rni yaratishda “yashil ish”(green job) tushunchasi yangi termin sifatida kirib keladi.

⁹ <https://xs.uz/uz/post/sajyoramizda-majdoni-fransiya-hududiga-teng-chiqindilar-oroli-hosil-bolgan>

Yashil ish – bu ekologik barqarorlikni ta'minlashga va tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan faoliyat turlari bilan bog'liq ish o'rinlari. Ushbu ish o'rinlari iqtisodiyotning barcha sektorlarida mavjud bo'lib, ularning asosiy maqsadi atrof-muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdir.

“Mamlakatimizda ham yashil iqtisodiyotga o'tish davrida “yashil ish” o'rinlarini yaratishga ko'proq e'tibor berish, “yashil ish” o'rinlarini yaratishda adolatni ta'minlash, mamlakatdagi korxonalar ish o'rinlarining “yashil”ligini ta'minlash masalalariga ham e'tibor qaratilmoqda.”¹⁰ Bu esa albatta, tabiiy resurslardan foydalanish darajasiga ta'sir qiladi, chiqindilarni kamaytiradi, atmosferaga chiqarilayotgan uglerod gazlari miqdorini kamaytirishga xizmat qiladi. Bu faoliyat turi bilan shug'ullanish esa energiya samaradorligi yoki qayta tiklanuvchi energiya manbaalari bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni o'z ichiga oladi.

Jamiyatga ham iqtisodiy ham ijtimoiy jihatdan keltirilayotgan zararlarni kamaytiradi va o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Atrof-muhitni muhofaza qiladi va kelajak avlod uchun tabiiy resurslarni yetib borishiga yordam beradi. “Yashil ish” o'rinlariga misol keltiradigan bo'lsak, qayta tiklanadigan energiya sohasi ya'ni, quyosh panellarini o'rnatish va xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari, shamol elektr stansiyalarida ishlovchilar, biogas ishlab chiqarish bo'yicha texnik mutaxassislar, chiqindilarni qayta ishlash sohasidagi ishchilar, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalaridagi xodimlar va shunga o'xshash yana bir necha qator mutaxassisliklar va ishlarni sanasak bo'ladi.

Qayta tiklanadigan energiya manbaalaridan iqtisodiyotida keng qo'llayotgan rivojlangan mamlakatlar misolida Germaniyani aytishimiz mumkin. “Energiewende”(Energiya o'zgarishi)¹¹ dasturini qo'llash orqali so'nggi yillarda energiyani tejash va uglerod gazlari miqdorini sezilarli darajada pasayishiga qaratilgan ushbu dastur Germaniya iqtisodiyoti va ekologiyasiga o'zining sezilarli ta'sirini kamaytirib kelmoqda.

NATIJALAR(РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)

Qayta tiklanadigan energiya resurslaridan mamlakatimiz misolida foydalanish loyihalari rejalashtirilgan va amalga oshirilib kelinmoqda. Quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha “2024-yilda umumiy quvvati 3 600 MVt bo'lgan 10 ta quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha bitimlar imzolangan.”¹² Bundan tashqari suvni tejash texnologiyalarini qishloq xo'jaligida keng qo'llash, bu usul orqali hosildorlikni oshirish hamda tabiiy resurslarni saqlash imkoniyatini yaratadi. Yashil investitsiyalarni jalb qilish, yashil texnologiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga integratsiya qilish orqali xalqaro hamkorlikni ham yaxshilash imkoniyatini yaratadi. Atrof- muhitga zarar yetkazmaydigan faoliyat orqali yerning tabiiy holatini saqlash, yerga tabiiy, organik o'g'itlar orqali ishlov berish kabi usullar orqali ekologik barqarorlik ta'minlanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yashil iqtisodiyotga o'tish orqali “yashil ish” o'rinlari yaratiladi. Ishchilar uchun ekologik sog'lom, xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlaydi. Ekologik sog'lom muhit nafaqat ishchilarning balki, mamlakat aholisining ham sog'ligiga ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bundan tashqari yashil texnologiyalarni joriy qilish orqali iqlim o'zgarishlariga

¹⁰ https://uza.uz/uz/posts/mamlakatimizda-yashil-ish-orinlarini-yaratish-qanday-imkoniyatlarni-ochadi_572878

¹¹ <https://daryo.uz/2020/02/04/yevropada-yashil-energetikaga-otish-odimlari-germaniya-tajribasi>

¹² 2022-yilda umumiy quvvati 3 600 MVt bo'lgan 10 ta quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha bitimlar imzolandi. Bu haqida Energetika vazirligi matbuot xizmati xabar berdi.

tez moslashish imkoniyatini yaratadi. Yashil iqtisodiyot qurg'ochilik, suv tanqisligi, oziq ovqat yetishmovchiligi kabi global miqyosdagi muammolarni yechishda yoki xavflarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Sanoat tarmoqlarini ekologik asosda rivojlantirish, neft va gazga qaramlikni kamaytirish orqali iqtisodiyotni yanada barqarorlashtirishga erishtirish mumkin. Iqtisodiyotning turizm sohasiga ham ekologik turizm yo'nalishlarini joriy etish orqali milliy iqtisodiyotga yangi daromad manbaalarini jalb etish imkoniyatini yaratadi. Yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston uchun uzoq muddatli iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy foyda keltiradi. Bu mamlakatni nafaqat barqaror rivojlantiradi, balki xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshiradi va xalq farovonligini yaxshilaydi.

XULOSA(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyotga o'tish global ekologik muammolar – iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi, atrof-muhit ifloslanishini hal etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu nafaqat iqtisodiy tomonlama, balki, kelajak avlodlar uchun sog'lom va toza ob-havo, yashash muhitini yaratishini ta'minlaydi. Xalqaro hamkorlik, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish, yashil iqtisodiyotga o'tishda muhim hisoblanadi. Masalan, Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi rivojlangan mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribalarini o'rganib chiqish va ulardan foydalangan holda milliy rivojlanish strategiyalarini shakllantirish lozim. Yer osti va yer usti tabiiy boyliklariga boy bo'lgan O'zbekistonni yashil iqtisodiyotga o'tkazish orqali iqtisodiy diversifikatsiyani amalga oshirishi, yangi ish o'rinlarini yaratish va xalqaro moliyaviy qo'llab-quvvatlash ya'ni investitsiyani jalb qilish mumkin. Yashil iqtisodiyot iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni birlashtirgan holda tabiiy kapitalni saqlash, ijtimoiy adolatni ta'minlash va uglerod chiqindilarini kamayishiga imkon beradi. Bu jarayonlar orqali mamlakatimiz o'z iqtisodiyotini uzoq muddatli raqobatbardosh holga keltiradi. Yashil iqtisodiyot nafaqat hukumatning siyosati, balki har bir fuqaroning ekologik mas'uliyatini oshirishni talab qiladi. Bu esa ta'lim, axborot tarqatish va jamoatchilikning faolligi orqali amalga oshiriladi. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirish uchun maxsus strategiyalar va normativ-huquqiy bazani mustahkamlashi lozim. Bundan tashqari yashil texnologiyalarni rivojlantirish va mahalliyashtirish uchun ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga ko'proq investitsiyalar jalb qilish lozim. Aholining ekologik jihatdan bilimlarini mavjudligi, ularni barcha masalalardan xabardor qilish va yashil iqtisodiyot g'oyalari keng targ'ib qilish ishlarini olib borishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.

2. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik –T. "Universitet" 2020y. 31 bet.

3. Т.В. Захарова "Зеленая" экономика как новый курс развития: глобальный и региональный аспекты. Вестник Томского государственного университета, №4(16),

2011.

4. Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики управления /Под ред. В.В. Попкова. Учебник. М.: ЗАО “Издательство “Экономика”, 2007. - 295 с.

5. Xaitboyev R. Ekologik turizm. O'quv qo'llanma. –T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 248 b
6. Brown L.R. Eco-Economy. Building an Economy for the Earth. Earth Policy Institute. W.W. Norton&Company. New York, London, 2019.

6. Shamuratova N.T. O'zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari. Monografiya. –T.: Universitet, 2021. – 139 b.

7. Хакбердиев, К. К. (2021). СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА И КИТАЙСКОЙ НАРОДНОЙ РЕСПУБЛИКИ В ОБЛАСТИ ДОБЫЧИ МИНЕРАЛЬНЫХ РЕСУРСОВ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 1), 713-718.

8. Sayfullayev, D. Cultural Diplomacy of Uzbekistan and Shanghai Cooperation Organization in the Framework of the Shanghai Cooperation Organization (SCO).

5. www.uznature.uz